

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 4-iyun № 10 (1572)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

TANAZZULDAN TARAQQIYOTGA

Kombinatda amalga oshirilgan islohotlar po'lat erituvchilar bo'linmasida ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqdi.

2 ➔

BARHAYOT MARDLAR IZIDAN

"Barhayot mardlar makoni" kitobi "O'zmetkombinat" AJ va Bekobod shahrining tarixiy solnomasi sifatida qadrli manba bo'lib qoldi.

3 ➔

SABR, MATONAT, MEHNAT

Metallurgiya sohasida mehnat qilayotgan inson yaxshi biladiki, har bir muvaffaqiyat ortida sabr, matonat va tinimsiz harakat turadi.

4 ➔

"O'ZMETKOMBINAT" AJ BOSHQARUVI RAISI – BOSH DIREKTOR MUROJAATI

HALOLLIK VA SHAFFOFLIK – KOMBINAT RIVOJINING ASOSIY YO'NALISHI

Hurmatli metallurglar!

Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda mustahkam huquqiy asos yaratilgan bo'lib, davlat organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar oldiga aniq vazifalar qo'yilgan.

Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni oshirish hamda korrupsion xavflarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

"O'zmetkombinat" AJ mamlakat sanoatida muhim o'rin tutadigan yirik korxona sifatida mazkur vazifalar ijrosiga mas'uliyat bilan yondashib kelmoqda. Korxona faoliyatida qonuniylik, adolat va halollik tamoyillari boshqaruv madaniyatining asosiy poydevori etib belgilangan.

Shu asosda kombinat tizimida komplayens nazoratini kuchaytirish, ichki audit samaradorligini oshirish, davlat xaridlari hamda tender jarayonlarida ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Bu islohotlar raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Raqamli yechimlarni joriy etish orqali qaror qabul qilishda inson omili qisqartirildi, moliyaviy va tashkiliy jarayonlar

ustidan nazorat kuchaytirildi, shu bilan birga boshqaruv jarayonlarining shaffofligi sezilarli darajada oshirildi.

Bunday yondashuv har bir rahbar va xodimning mas'uliyatini yanada kuchaytirishni talab etadi. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashish faqat alohida tuzilmalar vazifasi emas, balki barcha xodimlarning kundalik ish faoliyatidagi asosiy mezondir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish har bir vijdonli insonning muqaddas burchidir".

Ayniqsa, rahbar kadrlar uchun shaxsiy namuna ko'rsatish, qarorlar qabul qilishda xolislik va adolat tamoyillariga sodiq qolish ustuvor ahamiyatga ega. Vakolat-

"Eng muhim vazifalarimizdan biri korrupsiyadan xoli, ochiq va adolatli mehnat muhitini yanada mustahkamlashdir. Shaffoflik va qonuniylik ustuvor bo'lgan muhitda taraqqiyot barqaror bo'ladi, ishonch mustahkamlanadi va samaradorlik ortib boradi. Kombinatta bu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettiriladi".

ni suiiste'mol qilish, tanish-bilishchilik yoki manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi har qanday



holatlarga nisbatan keskin va murossasiz yondashuv shakllantirilishi shart.

Bu talablar kombinatning barcha bo'g'inlarida yagona ish tamoyili sifatida qaror topishi zarur. Halollik, vatanparvarlik va kasbiy mas'uliyat esa har bir xodim faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Kombinatda yo'lga qo'yilgan aloqa kanallari va murojaatlar bilan ishlash tizimi orqali kelib tushayotgan barcha xabarlar tezkor va xolis ko'rib chiqilmoqda. Barcha murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi, murojaat etuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari to'liq himoya qilinadi hamda ularga nisbatan har qanday bosim yoki ta'qibga yo'l qo'yilmaydi.

Kombinat faoliyatida ochiqlik va halollik tamoyillariga tayanilgan holda jamoatchilik, hamkorlar va fuqarolar bilan muloqot tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Kombinatt

rahbariyati korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jamoatchilik nazoratini muhim omil sifatida baholaydi va bu yo'nalishda faollik ko'rsatgan barcha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Aziz hamkasblar!

Eng muhim vazifalarimizdan biri korrupsiyadan xoli, ochiq, adolatli mehnat muhitini yanada mustahkamlashdir. Shaffoflik va qonuniylik ustuvor bo'lgan muhitda taraqqiyot barqaror bo'ladi, ishonch mustahkamlanadi va samaradorlik ortib boradi. Kombinatta bu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettiriladi.

Barcha rahbar va xodimlarni yuqori mas'uliyat, halollik va fido-yilik bilan faoliyat yuritishga chaqiraman.

Bahodir ABDULLAYEV,
"O'zmetkombinat" AJ
Boshqaruv Raisi –
Bosh direktor.

ELEKTRDA PO'LAT ERITISH BO'LINMASIDA


TANAZZULDAN TARAQQIYOT SARI

Sanoat taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy qudratining muhim ko'rsatkichlaridan biri. Ayniqsa, metallurgiya sohasi sanoat ishlab chiqarish zanjirining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. So'nggi yillarda Elektrda po'lat eritish bo'linmasi jamoasi uchun sinovli davr kechdi. Asosiy xomashyo bo'lgan metallolom tanqisligi, ehtiyot qismlar yetishmasligi va ta'mirlash tizimidagi muammolar ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada rejalar bajarilmay, jamoada tushkunlik kayfiyati yuzaga keldi.

Biroq o'tgan yil avgust oyidan boshlab kombinatda amalga oshirilgan islohotlar ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqdi. Yangi rahbariyatning reja va amaliy chora-tadbirlari tufayli sohada ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Avvalo, respublika hududlaridan qora metall chiqindilarini xarid qilish mexanizmi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Ilgari kombinatdagi metallolom zahirasi atigi uch kunlik ehtiyojni qoplar edi. Avvallari kombinatga oyiga 30 ming tonna temir-tersak qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 60 ming tonnaga yetdi. Eng muhimi, hozirda uch oylik metallolom zahirasi shakllantirildi. Bu esa ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Shuningdek, ilgari "Metallurgiya servis markazi" MCHJga o'tkazilgan ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi 714 nafar ishchi-xodim yana kombinat tarkibiga qaytarildi. Bu qaror ortiqcha qog'ozbozlik va vaqt yo'qotishlarni qisqartirib, texnikalarni ta'mirlash ishlarini tezlashtirdi. Ta'mirlash tizimi qayta tashkil etilganidan so'ng uskunalarining uzluksiz ishlashi 20 foizga oshdi.



Amalga oshirilgan islohotlar qisqa vaqt ichida o'z samarasini berdi. Agar avgust oyida pechlarda kuniga o'rtacha 14–15 ta po'lat eritmasi olingan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 22–24 taga yetdi. Hozirda har kuni o'rtacha 2200 tonna po'lat quymalar ishlab chiqarilmoqda.

Erishilgan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, to'g'ri boshqaruv, puxta rejalashtirish va jamoaga yaratilgan munosib sharoit har qanday sohani taraqqiyotga olib chiqadi. Elektrda po'lat eritish

bo'linmasidagi o'zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirdi, balki jamoaning ertangi kunga bo'lgan ishonchini ham mustahkamladi. Joriy yilning o'tgan davrida belgilangan rejalar ziyodi bilan bajarildi.

Bugun bu yerda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni katta ishtiyoq va mas'uliyat bilan bajarmoqdalar. Bu esa kombinatning kelgusi yutuqlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Diyor ZULFIQOROV.



SO'RAGAN EDINGIZ...

SHAXSIY MA'LUMOTLARGA
NIMALAR KIRADI?

Metallurglarimizdan tahririyatimizga mehnat munosabatlarida xodimning shaxsiy ma'lumotlari qaysi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi va ularni oshkor qilish mumkin yoki mumkin emasligi haqida savollar kelib tushmoqda. Ushbu masala yuzasidan qonunchilik normalariga asosan tushuntirish beramiz.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga ko'ra, xodimning shaxsiga doir ma'lumotlar deganda muayyan xodimga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar tushuniladi. Bunday ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va ularni xodimning rozilgisiz tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.

Xodimga oid shaxsiy ma'lumotlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- familiyasi, ismi, otasining ismi;
- tug'ilgan sanasi va joyi;
- pasport yoki ID-karta ma'lumotlari;
- JShShIR;
- yashash manzili;
- telefon raqami;
- elektron pochta manzili;
- ma'lumoti, mutaxassisligi va diplom ma'lumotlari;
- mehnat faoliyatiga oid ma'lumotlar;
- ish haqi va lavozimi haqidagi ma'lumotlar;
- oilaviy ahvoli;
- tibbiy ko'rik yoki sog'lig'iga doir ma'lumotlar;
- harbiy hisob ma'lumotlari;
- soliq va pensiyaga oid ma'lumotlar hamda ish beruvchiga ma'lum bo'lgan boshqa shaxsiy axborotlar.

Qonunchilikka muvofiq, ish beruvchi va mas'ul shaxslar ushbu ma'lumotlarni muhofaza qilishi shart. Xodimning shaxsiy ma'lumotlarini uning rozilgisiz oshkor qilish qonunbuzarlik hisoblanadi.

Bunday holatlarda aybdor shaxslar intizomiy, ma'muriy yoki qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shu bois, har bir tashkilotda xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash va ulardan foydalanishda qonun talablariga qat'iy rioya etish muhim hisoblanadi.

*Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.*



YAXSHI DAM – MEHNATGA HAMDAM

MAZMUNLI VA MAROQLI TADBIRLAR

Kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan ishchi-xodimlar uchun tashkil etilayotgan madaniy-ma'rifiy sayohatlar izchil davom etmoqda. Navbatdagi safarlar doirasida Qo'riqlash xizmati, Avtotransport xizmati, Markaziy laboratoriya, Energetika bo'linmasi, Quyuv-prokatlash majmuasi hamda "Metallurgiya servis markazi" kabi jamoalar uchun qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahriga sayohatlar uyushtirildi.

Sayohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad ishchi-xodimlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning madaniy hordiq chiqarishlariga sharoit yaratish hamda jamoadagi ahillik va ko'tarinki kayfiyatni mustahkamlashdan iborat bo'ldi.

Safar davomida ishtirokchilar Samarqandning mashhur tarixiy obidalarini va tabarruk qadamjolarini ziyorat qilishdi. Jumladan, muhtasham Registon maydoni, Birinchi Prezident Islom Karimov haykali poyi hamda Imom Buxoriy majmuasi xodimlarda katta taassurot qoldirdi. Azim shaharning betakror me'moriy qiyofasi,

boy tarixi va go'zal manzaralari barchaga unutilmas lahzalarni taqdim etdi.

Ishchi-xodimlar mazkur sayohatlar orqali nafaqat madaniy dam olish imkoniga ega bo'lishdi, balki milliy merosimiz va tarixiy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishishdi.

Shuningdek, yaqinda kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan bir guruh ishchi-xodimlarning poytaxtimizdagi "Xalqlar do'stligi" san'at saroyiga tashrifi uyushtirildi. Metallurglar o'zbek estradasi yulduzlari ijrosidagi konsert dasturini tomosha qilib, ishdan tashqari vaqtda maroqli madaniy hordiq chiqarishdi. Bu kabi tadbirlar xodimlarning dam olishini mazmunli tashkil etish va jamoada o'zaro samimiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi ma'lum qilishicha, bunday tadbirlar reja asosida davom ettiriladi. Yaqin kunlarda kombinatning boshqa bo'linmalari xodimlari uchun ham navbatdagi shunday tadbirlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Ilhom ISMOILOV.

NURLI XOTIRALAR, EZGU AMALLAR

BARHAYOT MARDLAR IZIDAN



Inson borki, mehnati, so'zi, el-yurtga qilgan xizmati bilan qadr topadi. Shunday insonlar borki, ular nafaqat o'z davrining faoli, balki kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi. Ana shunday fidoyi insonlardan biri – mehnat faxriysi, jonkuyar tashkilotchi, ijodkor va haqiqiy metallurg Yunusboy Yusupov edi.

Yunusboy Yusupov 1942-yilda tavallud topdi. U kishining hayot yo'li halol mehnat, ilmga intilish va el xizmati bilan yo'g'rilgan edi. Otasi Matkarimov Yusup aka O'zbekiston metallurgiya zavodida prokat sexida mehnat qilgan bo'lsa, onasi Qumriniso aya farzandlarini halollik, to'g'rilik va insonparvarlik ruhida tarbiyalagan soliha ayol edi.

Yunusboy yoshligidan ilmga chanqoq, tirishqoq va faol inson bo'lib ulg'aydi. Maktabda a'lo baholarda o'qib, keyinchalik Toshkent temir yo'llar texnikumida tahsil oldi. Rus tilida olib borilgan darslarni tez o'zlashtirib, eng a'lochi talabalar safiga kirgani u kishining bilimga bo'lgan mehri qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi.

Mehnat faoliyatini temir yo'l sohasida boshlagan Yunusboy Yusupov keyinchalik shahar yoshlar qo'mitasida, partiya tashkilotlarida, radio va matbuot sohasida samarali

mehnat qildi. Ammo qalbi doimo metallurgiya kombinati bilan bog'liq edi. Shu bois 1975-yildan boshlab umrining qariyb qirq yildan ortiq qismini O'zbekiston metallurgiya kombinati rivojiga bag'ishladi.

U kishi kombinatda turli lavozimlarda ishlab, korxona taraqqiyoti, yangi obyektlar qurilishi va mehnat jamoasining shakllanishiga munosib hissa qo'shdi.

Elektrda po'lat eritish sexi qurilishi, kombinatning kengayishi, ijtimoiy obyektlar barpo etilishi kabi tarixiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'ldi.

Uztoz nafaqat tashkilotchi, balki haqiqiy ijodkor inson ham edilar. Zavod va shahardagi bayram tadbirlari uchun ssenariylar yozar, "Za metall", "Bekobod ishchisi", keyinchalik "Metallurg minbari" gazetalarida muntazam maqolalar bilan qatnashib borar edi. Uning qalami orqali kombinat tarixi, mehnat qahramonlari va

metallurqlar hayoti keng yoritildi.

2016-yilda yozilgan "Barhayot mardlar makoni" kitobi esa nafaqat muallifning hayot yo'li, balki Bekobod shahri va O'zbekiston metallurgiya kombinatining tarixiy solnomasi sifatida qadrlan manba bo'lib qoldi.

Yunusboy Yusupov ustozga hurmatni hayot mezonini deb bilar edilar. O'zlariga yo'l ko'rsatgan insonlarni umr bo'yi ehtirom bilan tilga olar, yoshlarga esa bilim va tajriba ulashishdan charchamas edi. Shu bois ham ko'pchilik uni "ustoz" deb e'zozlardir.

Bugun Yunusboy Yusupov oramizda yo'q. Ammo ularning nurli xotirasi, ezgu amallari, kombinat tarixi va insonlar qalbida qoldirgan izlari barhayotdir. Metallurgiya sohasiga sidqidildan xizmat qilgan bu insonning hayot yo'li yosh avlod uchun haqiqiy ibrat namunasidir. Ruhlar shod, manzillari jannat bo'lsin!

Ismadiyor MAMATQULOV.



"SOHIL" – BOLALARNING SEVIMLI OROMGOHI

Korxona xodimlarining farzandlari uchun yozgi ta'tilni mazmunli va foydali tashkil etish maqsadida "Sohil" bolalar oromgohi yangi mavsum eshiklarini ochmoqda. Oromgohning birinchi mavsumi joriy yilning 15-iyun kundan o'z faoliyatini boshlaydi.

Mazkur oromgohda bolalarning dam olishi, sog'lomlashishi va bo'sh vaqtini samarali o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Dam olish davomida ular professional murabbiylar rahbarligida suzish sirlarini o'rganish, turli sport musobaqalari va sog'lomlashtiruvchi o'yinlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Shuningdek, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida san'at, musiqa va hunarmandchilik to'garaklari ham faoliyat yuritadi. Bu esa ularning qiziqishlari va iqtidorlarini namoyon etishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Aziz metallurqlar!

Yo'llanmalar soni cheklanganligini inobatga olgan holda, farzandlaringizni oromgohga yuborish istagida bo'lsangiz vaqtni boy bermasdan o'z bo'linmangiz kasaba uyushma qo'mitasi raisiga murojaat qiling!

Sardor BAHODIROV.

SUD ZALIDAN

MULK DAXLSIZLIGI – QONUN HIMOYASIDA

Korxona va tashkilotlar mol-mulkini asrash, ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash hamda jamiyatda qonuniylik muhitini mustahkamlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har qanday noqonuniy harakatga huquqiy baho berilishi esa fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasi 1-qismi bilan fuqaro Shavkat Rasulovga nisbatan to'plangan ma'muriy ish ko'rib chiqildi.

2026-yil 3-yanvar kuni "O'zmetkombinat" AJning Quyuv-prokatlash majmuasida Shavkat Rasulov elektroshit jihozlaridan mis bo'laklarini yashirincha yechayotgani qo'riqchilar tomonidan aniqlangan.

Huquqbuzar sud majlisida o'z aybiga to'liq iqror bo'lib, qilgan ishidan pushaymonligini bildirgan hamda kelgusida bunday holat takrorlanmasligini ma'lum qilgan.

Sudda ma'muriy bayonnoma, ashyoviy dalillarni olish bayonnomasi, tushuntirish xatlari va boshqa hujjatlar o'rganilib, huquqbuzarning aybi to'liq isbotlangan deb topildi. Mis bo'laklari qaytarilgani inobatga olinib, sud qaroriga ko'ra, Shavkat Rasulov O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan deb



topilib, unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida – 412 ming so'm jarima jazosi tayinlandi.

Qonun talablariga rioya qilish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Korxona mol-mulkiga nisbatan noqonuniy harakatlar nafaqat iqtisodiy zarar, balki jamoada intizom va ishonch muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sudlar tomonidan bunday huquqbuzarliklarga o'z vaqtida huquqiy baho berilishi jamiyatda adolat va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sudyasi.

KUHLAR TENG KELDI

O'zbekiston PRO-Ligasi 8-turidan o'rin olgan markaziy uchrashuvda "Metallurg" o'z maydonida "Kattaqo'rg'on" jamoasini qabul qildi. Qiziqarli va muvaffaqiyatli kechgan bahsda g'olib nomi aniqlanmadi. Uchrashuv 1:1 hisobidagi durang bilan yakunlandi.

Shu tariqa, 8-turning markaziy bahsida kuchlar teng keldi va jamoalar bir ochkodan qo'lga kiritdi.

Tur yakunlariga ko'ra, "Orol" 20 ochko

bilan musobaqa jadvalida peshqadamlikni saqlab qolmoqda. Ikkinchi o'rinda borayotgan "Sho'rtan" jamoasi ham 20 ochko to'plagan.

"Metallurg", "Lochin" va "Kattaqo'rg'on" jamoalari esa 15 ochkodan jamg'arib,

kuchlilar safidan joy olgan.

"Metallurg" o'zining navbatdagi uchrashuvida bugun safarda "Sho'rtan" mehmoni bo'ladi.

Haydar ALIYEV.

FUTBOL: PRO-LIGA

METALLURGLAR IJODIDAN

SABR BOR JOYDA NATIJA BO'LADI

Hayotda insonni sinaydigan holatlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, metallurgiya kabi mashaqqatli sohada mehnat qilayotgan inson yaxshi biladiki, har bir muvaffaqiyat ortida sabr, matonat va tinimsiz harakat turadi.

Qadimiy bir hikmatli rivoyat bor:

Ikki qurbaqa sut to'ldirilgan ko'zaga tushib qolibdi. Ko'zaning devorlari silliq, chiqib ketishning iloji yo'q edi. Qurbaqalardan biri vaziyatni ko'rib, tushkunlikka tushibdi. "Baribir chiqolmayman", deb harakatni to'xtatibdi va ko'p o'tmay sutga cho'kib halok bo'libdi.

Ikkinchisi esa taslim bo'lmabdi. U tinmay sakrabdi, harakat qilibdi. Harchand urinishlari behudadek tuyulsa-da, to'xtamabdi. Oxiri sut qatiqlanib, yog' hosil bo'libdi. Qurbaqa ana shu yog' ustiga chiqib, jonini saqlab qolibdi.

Bu oddiy rivoyat ortida katta hayotiy haqiqat mujassam.

Ba'zan inson oldidagi muammo shunchalik og'ir ko'rinadiki, go'yo chiqish yo'li yo'qdek tuyuladi. Lekin

aynan shunday paytda sabr bilan qilingan harakat kutilmagan yechimni paydo qiladi.

Metallurgiya sohasida faoliyat yuritayotgan muhandis, texnolog, prokatchi, po'lat quyuvchi yoki oddiy ishchi – har biri bu haqiqatni yaxshi his qiladi.

Ba'zan bo'linmada murakkab jarayon,

texnikadagi nosozlik, ishlab chiqarishdagi qiyinchilik yoki rejani bajarishdagi muammo insonni sinovdan o'tkazadi. Ana shunday vaziyatlarda ba'zilar chekinadi, ba'zilar esa izlanadi, harakat qiladi va natijaga erishadi.

Metallurgiya bu faqat temir eritish emas. Bu irodani toblash, sabrni charxlash, inson xarakterini mustahkamlaydigan hayot maktabidir.

Kombinatimizda ko'p yillar mehnat qilgan faxriy ustozlarimiz hayotiga nazar tashlasak, ularning muvaffaqiyati ortida ham aynan shu matonatni ko'ramiz. Qiyinchilikdan qochmagan, muammoga yechim izlagan insongina haqiqiy ustoz va haqiqiy metallurg bo'lib yetishadi.

Hikmat shundaki, ba'zan insonni qutqaruvchi narsa uning kuchli imkoniyati emas, balki taslim bo'lmasligidir.

Zero, harakat bor joyda baraka, sabr bor joyda natija bo'ladi. Hayot esa doimo izlangan insonga yangi yo'l ochadi.

Diyor ZULFIQOROV.



HIKMATLI KICHIK HIKOYALAR

**O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK**

Uch donishmand o'tmish, bugun va kelajak haqida bahslashib qolishibdi.

Birinchisi:

– Insonni o'tmish tarbiyalaydi, – debdi.

Ikkinchisi:

– Yo'q, insonni kelajakka bo'lgan intilish shakllantiradi, – debdi.

Uchinchisi esa:

– O'tmish o'tdi, kelajak hali kelmadi. Inson faqat bugun yashaydi va harakat qiladi. Shuning uchun eng muhim vaqt – bugun, – debdi.

G'AZABNI YENGGAN MEHR

Yangi uy sotib olgan insonning hayoti havas qilgudek edi. Katta hovli, mevazor bog', fayzli xonadon...

Ammo qo'shnisi janjalkash odam edi. U boshqalarning tinchligini buzishdan rohat olar, goh chiqindi tashlar, goh yomon gap tarqatardi.

Bir kuni yangi qo'shni eshigi oldida axlat to'la chelakni ko'rdi. U jahl qilmadi. Axlatni to'kib tashladi, chelakni yuvib tozaladi. So'ng uni sara, shirin olmalar bilan to'ldirib, qo'shnisining eshigini taqillatdi.

Janjalkash qo'shni eshikni g'azab bilan ochdi. U janjal kutayotgan edi.

Ammo mehribon qo'shni chelakni uzatarkan, xotirjam dedi:

– Inson o'zida nima bo'lsa, boshqalarga ham shuni ulashadi...

DONISHMANDLAR DEYDIKI...

**Pushaymon bo'lmaslik uchun,
Xursandligingda so'z berma,
Xafaligingda javob berma,
Jahling borida qaror qilma...**

Mavlono RUMIY.

**O'z o'tmishini unutgan, o'z tili
va madaniyatidan kechgan millat
– manqurtga aylanadi. Ildizsiz
daraxt qurigani kabi, tarixsiz xalq
ham inqirozga mahkumdur.**

Chingiz AYTAMATOV.

**Dunyoda suvdan ko'ra yumshoq
va zaif narsa yo'q. Ammo u eng
qattiq toshni ham yemirib, teshib
o'tadi. Yumshoqlik qattqlikni
yengadi, zaiflik kuchli ustidan
g'olib keladi – buni hamma biladi,
lekin hech kim amal qilmaydi.**

Lao SZI.

**Dunyo keng, shataloq otish
mumkindir, yoki xarsangtoshday
yotish mumkindir. Esirgap
aytgandek, haqiqiy do'stni sotib
olib bo'lmas, biroq ularni sotish
mumkindir.**

Abdulla ORIPOV.

BILASIZMI?

Bodom mag'zini yanchib, asalga aralashtirib, muntazam iste'mol qilib yurish, asabning davosi, miyani quvvatlantiruvchi, aqlni ziyodlashtirib, fikrni tiniqlashtiruvchi vositadir.

Anjir bargini ezib, boshga surtsangiz, soch to'kilishining oldini oladi.

O'rik va turshakdan tayyorlangan sharbatni har kuni nahorga 1 stakandan ichib turilsa, yurakka davo bo'ladi.

Anjir mevasi va uning qo'qisidan tayyorlangan damlama tomoqni yumshatadi, isitma tushirish xususiyatiga ega.



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparatida joylashgan.

Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.